

## BOLALARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH

**Nurmatova Shaxriyora Ilhomjon qizi**

Andijon davlat Pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası  
o'qtuvchisi

**Yusupova Umida Zayniddin qizi**

Andijon davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi birinchi  
bosqich 106-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13904320>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola boshlang'ich sinf bolalari uchun mantiqiy va tanqidiy bilimi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bolalarga faqatgina maktabda emas balki uyda ham o'rgatishlik aytib o'tilgan. Bir qancha mantiqiy masalalar va ularning yechimlari. Prezidentimiz ham maktab haqida o'z nutqida aytib o'tganligi va bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'z:** Mantiqiy, 2- sinf, fikrlash, Leader School, Toshkent.

## DEVELOPMENT OF LOGICAL AND CRITICAL THINKING PROCESS IN CHILDREN

**Abstract.** This article provides information about logical and critical knowledge for elementary school children. Children should be taught not only at school, but also at home. Several logic problems and their solutions. The president also mentioned about the school in his speech and some information was mentioned.

**Key word:** Logical, 2nd grade, thinking, Leader School, Tashkent.

## РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о логических и критических знаниях для детей начальной школы. Детей следует обучать не только в школе, но и дома. Несколько логических задач и их решения. В своем выступлении президент также упомянул о школе и привел некоторую информацию.

**Ключевое слово:** Логика, 2 класс, мышление, Школа Лидера, Ташкент.

Hozirgi rivojlanib borayotgan XXI asrda har bir soha rivojlanib yetakchi o'rinlarga chiqmoqda. Albatta bunday rivojlanishni davomiy qilish uchun bolalarga e'tibor qaratilayapti.

Ularga har tomondan imkoniyatlar yaratilayapti shunday ekan. Biz bolalarni maktabga chiqqandan boshlab fikrlashini o'stirishimiz texnologiyalar bilan tanishtirib o'tishimiz lozim

<sup>1</sup>Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar

<sup>2</sup> Yurtimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda yurtimiz rivojlanishida Sharqona tarbiya mazmunini o'zida mujassam etgan ta'lim muassasalarimizdagi o'quvchi-yoshlarni o'rta asr Sharqining buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ta'kidlaganlaridek, mustaqil tanqidiy fikrlashga o'rgatish hamda ushbu tanqidiy fikrlashi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar biror bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslaganda katta afzallikka ega ekanligini uqtirish bugungi globallashuv jarayonida o'rni muhim sanaladi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish boshlang'ich maktabning asosiy vazifalaridan biridir. Psixologlarning fikricha boshlang'ich sinfdan qatnashuvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatib borish zarur, chunki mantiqiy jarayonlarni yetarli darajada o'zlashtirmaslik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematikaning ahamiyati haqida V. A. Gusev, M. I. Zaykin, V. A. Kolosova, Yu. M. Kolyagin, L. M. Lixarnikov, E. E. Ostanina, L. G. Peterson, D. Poyga, G. I. Sarantsev, C. Phillips, L. M. Fridman kabi tadqiqotchilar ishlarida uchratish mumkin.

Mantiqiy fikrlash fenomeni haqida batafsilroq to'xtaladigan bo'lsak A. A. Lublinskaya fikricha, "Mantiqiy fikrlash, birinchi navbatda, fikrlash jarayonining o'zida namoyon bo'ladi.

Amaliy fikrlashdan farqli o'laroq, mantiqiy fikrlash faqat og'zaki yo'l bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda yosh bolalarga koproq jiddiy e'tibor qaratilmoqda buning sababi asosan ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatishdan iborat. Bolada biz mantiqiy va tanqidiy fikrlashni, oiladan va maktabdan rivojlantirishi mumkin.<sup>3</sup> Bu haqida ta'lim konsaltingi bo'yicha xalqaro ekspert Liliya Muxametshina yaqinda Toshkentdagi Leader School tomonidan tashkil etilgan veb-seminarda oiladagi farzandlarning tanqidiy fikrlashini qanday rivojlantirish mumkinligi haqida gapirdi. Dunyo doimo o'zgarib turadi, yurist, buxgalter va boshqa zamonaviy kasblar o'nlab yillardan keyin "aqli" qurilmalar va xizmatlar bilan almashtiriladi. Oradan qancha vaqt o'tishiga qaramasdan oiladan bolada tanqidiy yoki mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mumkin. Mantiqiy fikrlash – bumuammolivaziyatni tahlil qilish va oqilona yechim topish harakati. Tanqidiy fikrlash singari, mantiqiy fikrlash muammoni ob'ektiv o'rganish uchun fikrlash qobiliyatlaridan foydalanishni talab qiladi.

Aniqki, maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko'rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o'z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko'p hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to'xtaydi.

Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste'molchisiga aylanishadi, ammo ular bilimlarning yaratuvchisiga aylanishi kerak. Asosiysi

<sup>2</sup> BOSHLANG'ICH TALIMDA MATEMATIK TOPSHIRIQLARNI YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA LREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Orziqulova Shoxista Shavkat qizi

Zayniddinova Karomat Zavqiddin qizi

<sup>3</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/16/creative-thinking/>

Bolalarda tanqidiy fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin

o'sha payti bolaga to'g'ri yo'nalish bera olish va matematikaga bo'lgan iqtidorini ochib bera olish kerak. Bolalar mantiqiy savollarga juda o'ch bo'lishadi. Har qanday yosh bola unga boshqotirma aytilganda tafakkur qilishga intiladi. Mantiqiy savollar bolalarning aqliy faoliyatini o'stirishda muhim ro'l o'ynaydi. Biz 4- sinf o'quvchisiga quydagicha mantiqiy savollar berishimiz mumkin.

<sup>4</sup>Masalan: Bir kishi bozordan 50 so'mga ot sotib oldi. Otlar narxi ko'tarilgani uchun uni 60 so'mga sotdi. Otsiz qiynalishi bilib 70 so'mga yana ot sotib oldi. Otasining qimmat olisban deyishidan cho'chib 80 so'mga sotib yubordi. U qancha foyda ko'radi?

Matematikani yaxshi bilib iqtidorli o'quvchi bu savolga qiyinchiliklarsiz oson javob topa oladi va sheriklariga yordam beradi. Bu masalada otlar narxi ko'tarilgani uchun ham 60 so'mga sotibdi va yana ot sotib olibdi 70 so'mga demak buni endi ayirish kerak. Otasi 80 somga sotibdi foydami? Demak qo'shuv belgisini qo'yamiz deb o'zini tengdoshlariga ham o'rgatadi.

$$-50+60-70+80=20$$

Javobini chiqaradi va mana shu o'quvchi bilan kuchliroq shug'ullanish kerak chunki unda matematikaga nisbatdan iqtidor bor. Yana biz 2-sinflar uchun mo'ljallangan mantiqiy savolni ko'rib o'tsak.

32 jangchining 1 ta qo'mondoni bor u nima? (tish va til)

Kabi savollar bilan o'quvchini bilimini oshirish mumkin. Mana shunday qiziqarli savollardan keyingina o'quvchida qiziqish paydo bo'ladi albatta.

<sup>5</sup> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o'z g'oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash, kommunikativ savodxonligi, go'zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog'lom bo'lish, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi. Bu o'z navbatida kichik yoshdagi o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirish va amalda to'g'ri qo'llay olishlarini ta'minlaydi.

Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashlarini rivojlan tirish uchun darsning maqsadini aniq, pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega.

O'qtuvchi o'quvchi bilan ishlar ekan unga yo'nalish berish va albatta unga misol chiqmasa ham uni hech kim ustidan kulmasligini aytish va o'rgatish lozim.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- *tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;*
- *o'quvchi-yoshlarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;*
- *turli – tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;*

<sup>4</sup> [https://baxtiyor.uz/mantiqiy-savollar-javobi-bilan/#google\\_vignette](https://baxtiyor.uz/mantiqiy-savollar-javobi-bilan/#google_vignette)

<sup>5</sup> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH  
ORQALI MUSTAQIL FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH  
Abdullayeva Karamat Niyazmetovna Matyakubova Gulchexra Jumaniyazovna

- o`quvchi-yoshlarning o`quv jarayonidagi faolligini ta`minlash;
- o`quvchi-yoshlarni kulgiga qolmaslikka ishonitirish kerak;
- har bir o`quvchi-yoshlarning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o`zlarida ishonch hissini uyg`otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Xulosa qilib shuni aytib o`tish kerakki!

O`quvchini yana asosan oilasi bilan ham birgalikda ishlash kerak chunki bolaga oila ham qattiq ta`sir qilishi mumkin. O`qtuvchilar qancha ahamiyat bilan bolalarni o`qitssa ular shunchalik bilimli bo`lib voyaga yetadi. O`quvcxhilariga iloji boricha ko`proq qiziqitirish uchun ularga qiziqarli savollar berish kerak.

### REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruza. 2017-yil 14-yanvar
2. BOSHLANGICH TALIMDA MATEMATIK TOPSHIRIQLARNI YECHISH ORQALI O`QUVCHILARDA LREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI  
Orziqulova Shoxista Shavkat qizi  
Zayniddinova Karomat Zavqiddin qizi
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/16/creative-thinking/>  
Bolalarda tanqidiy fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin
4. [https://baxtiyor.uz/mantiqiy-savollar-javobi-bilan/#google\\_vignette](https://baxtiyor.uz/mantiqiy-savollar-javobi-bilan/#google_vignette)
5. BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH  
Abdullayeva Karamat Niyazmetovna Matyakubova Gulchexra Jumaniyazovna